

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA OILANING MUSTAHKAMLIGI VA OILAVIY NIZOLARNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Hamdamova Kamola Iskandar qizi

*Zarmed universiteti Pedagogika va psixologiya
sirtqi ta'lim yo'nalishi 5- bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jamiyat taraqqiyotida oilaning o'rni va ahamiyati, oilaviy muhitning shaxs kamolotiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Oila jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim ijtimoiy instituti sifatida talqin etilib, undagi sog'lom psixologik muhitning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, oilaviy nizolarning asosiy turlari, xususan, er-xotin o'rtasidagi kelishmovchiliklarning kelib chiqish sabablari va ularning salbiy oqibatlari ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *oila, jamiyat, oila mustahkamligi, oilaviy nizo, er-xotin munosabatlari, psixologik iqlim, tarbiya, shaxs kamoloti*

Kirish

Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti sifatida, shaxslarning ruhiy salomatligi, ijtimoiy moslashuvi va umumiy farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy dunyoda oilalar turli xil stresslar, iqtisodiy qiyinchiliklar, madaniy o'zgarishlar va shaxsiy nizolarga duch kelmoqda. Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti bo'lib, unda shaxsning ma'naviy, axloqiy va psixologik jihatdan shakllanishi amalga oshadi. Jamiyat taraqqiyoti bevosita oilaning mustahkamligi va sog'lom muhitiga bog'liqdir. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Oila – jamiyatning tayanchi, ma'naviyat manbai va kelajak avlod tarbiyasining muhim maktabidir”. Shu bois oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan nizolarni ilmiy asosda o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Oilaviy mustahkamlik deganda oilaning bu qiyinchiliklarga bardosh berish, moslashish va undan kuchliroq chiqish qobiliyati tushuniladi. Aksincha, oilaviy nizolar oila a'zolari o'rtasidagi ziddiyatlar bo'lib, ular ijtimoiy-psixologik omillar ta'sirida yuzaga keladi va oilaning barqarorligiga tahdid soladi.

Oila- bu nikoh va qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan, o'zaro mehr-muhabbat, hurmat va mas'uliyatga asoslangan ijtimoiy institut hisoblanadi. Biroq oiladagi nizolar va kelishmovchiliklar er-xotin hamda farzandlar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning sog'lom va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilaning mustahkamligi muhim va beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil etuvchi har bir hujayraning sog'lomligiga bog'liq bo'lganidek, jamiyat deb ataluvchi murakkab tizimning barqaror rivojlanishi ham oilalarning mustahkamligiga chambarchas bog'liqdir. Oila jamiyat va davlatning eng muhim bo'g'ini bo'lib, unda shaxs shakllanadi, ijtimoiylashuv jarayoni amalga oshadi. Oilada sog'lom psixologik muhitning mavjudligi unda voyaga yetayotgan farzandlarning ma'naviy, ruhiy va jismoniy kamolotini ta'minlaydi. Aynan oila muhitida

shaxsda axloqiy me’yorlar, ijtimoiy mas’uliyat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat shakllanadi. Kelajakda jamiyat taraqqiyotini belgilovchi yetuk, ongli va faol fuqaro tarbiyasi oiladagi muhitga bevosita bog’liqdir.

O‘zbek psixologiya ilmidagi oila muammolari shaxs kamoloti, jamiyat barqarorligi va ma’naviy taraqqiyot bilan uzviy bog’liq holda tadqiq etilgan. Xususan, B.Q. Qodirov, G‘.B. Shoumarov, E. G‘oziyev, R.I. Sunnatova, M. Davletshin va Sh. Abdullayeva kabi olimlarning ilmiy qarashlari mazmunan bir-birini to‘ldiradi va yagona konseptual yondashuvni tashkil etadi.

Professor B.Q. Qodirov oila psixologiyasini mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida asoslab, oilani shaxslararo munosabatlar, emotsional muvozanat va psixologik moslashuv tizimi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, oilaviy nizolar asosan muloqot madaniyatining pastligi, rollar to‘qnashuvi va psixologik ehtiyojlarning qondirilmasligi natijasida yuzaga keladi. Bu yondashuv oiladagi muammolarni chuqur psixologik tahlil qilishga asos bo‘ladi. Mazkur qarashlarni G‘.B. Shoumarovning ilmiy ishlari mantiqiy jihatdan davom ettiradi. Olim oilaviy barqarorlikni ta’minlashda nikohga psixologik tayyorgarlik masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Unga ko‘ra, yoshlarning oila qurishga yetarli psixologik tayyorgarliksiz kirishi kelgusida nizolar va ajrimlar ehtimolini oshiradi. Shoumarovning yondashuvi Qodirov ilgari surgan oilaviy konfliktlar nazariyasini profilaktik jihatdan boyitadi.

Professor E. G‘oziyev esa oilani shaxs psixologiyasining asosiy shakllanish muhiti sifatida talqin etadi. Uning ilmiy qarashlariga ko‘ra, shaxs xarakteri, motivatsiyasi va ijtimoiy xulq-atvori bevosita oilaviy muhit ta’sirida shakllanadi. Bu fikr Qodirov va Shoumarovlarning oilani psixologik tizim sifatida ko‘rish yondashuvi bilan uyg‘unlashadi.

Olim M. Davletshinning tadqiqotlarida oila yosh va pedagogik psixologiya bilan uzviy bog‘lanadi. U oilani tarbiya jarayonining boshlang‘ich va eng ta’sirchan bosqichi deb hisoblaydi. Davletshinning qarashlari G‘oziyevning shaxs rivojida oilaning hal qiluvchi o‘rni haqidagi g‘oyalarini ilmiy jihatdan chuqurlashtiradi.

Psixolog olimi R.I. Sunnatova va Sh. Abdullayevalar esa oilaviy munosabatlarning amaliy-psixologik jihatlariga e’tibor qaratadilar. Ular oiladagi emotsional iqlim, empatiya, o‘zaro hurmat va muloqot madaniyatini oilaviy barqarorlikning asosiy shartlari sifatida ko‘rsatadilar. Bu qarashlar Qodirov tomonidan ilgari surilgan oilaviy nizolarni bartaraf etish mexanizmlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Oilaviy mustahkamlik oilaning individual va kollektiv psixologik resurslariga tayangan holda shakllanadi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar oilani murakkab ijtimoiy-psixologik tizim sifatida talqin qilib, uning barqarorligi emotsional bog‘lanish, moslashuvchanlik va samarali muloqot bilan belgilanadi. Oilada hissiy qo‘llab-quvvatlash va emotsional bog‘lanish mustahkamlikning yetakchi omili hisoblanadi. Stress jarayoni nazariyasiga ko‘ra (L. Pearlin), ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash stressning salbiy oqibatlarini kamaytirib, psixologik farovonlikni ta’minlaydi. Mustahkam emotsional aloqalar oilaning tashqi bosimlarga bardosh berish qobiliyatini oshiradi.

Shuningdek, sotsiologik yondashuvda E. Dyurkgeym oilani jamiyat barqarorligini ta’minlovchi asosiy institut sifatida baholab, undagi muvozanat buzilishi ijtimoiy inqirozlarga olib kelishini qayd etadi. T. Parsons esa oilani shaxs ijtimoiylashuvining asosiy muhiti deb

hisoblab, uning bolalar uchun birlamchi ijtimoiylashuv va kattalar uchun psixologik barqarorlikni ta'minlash funksiyalarini ajratib ko'rsatadi. Demak, oilaviy mustahkamlik jamiyatning barqaror rivojlanish sharti hisoblanadi.

Biroq, oilaviy munosabatlarda psixologik nizolar asosan shaxslararo muloqot buzilishi bilan bog'liq. J. Bowlbyning bog'lanish nazariyasiga ko'ra, bolalikda shakllangan emotsional bog'lanish modeli keyingi oilaviy munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Noto'g'ri bog'lanish nizolar xavfini oshiradi.

E. Fromm esa oilaviy nizolarning ildizini muhabbat, hurmat va ongli mas'uliyat yetishmasligida ko'radi. Uning fikricha, haqiqiy sevgi – bu faqat hissiy holat emas, balki mas'uliyatli munosabatdir. Shu bois oilaviy nizolarning psixologik omillariga muloqot madaniyatining pastligi, empatiyaning yetishmasligi, xarakter va temperament farqlari hamda surunkali stress kiradi.

Bugungi kunda oilaviy nizolarning eng ko'p uchraydigan va dolzarb turi er-xotin o'rtasidagi kelishmovchiliklardir. Oilaviy ziddiyat murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, u er-xotin o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar, emotsional jarayonlar va ijtimoiy rollarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Bunday nizolar ko'pincha ochiq qarama-qarshilikka aylanishidan avval ma'lum vaqt davomida yashirin holatda rivojlanib, oilaviy munosabatlarda salbiy psixologik muhitni yuzaga keltiradi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, er-xotin o'rtasidagi nizolarning shakllanishiga bir qator psixologik va ijtimoiy omillar sabab bo'ladi. Jumladan:

- muloqot madaniyatining pastligi;
- o'zaro ishonchning yetishmasligi;
- moliyaviy masalalar bilan bog'liq kelishmovchiliklar;
- xarakter va dunyoqarash farqlari;
- qarindoshlar va oila a'zolarining haddan tashqari aralashuvi;
- surunkali stress va tashqi ijtimoiy bosimlar.

Er-xotin o'rtasidagi nizolarning eng asosiy va ko'pincha dastlab sezilmaydigan omillaridan biri muloqot yetishmasligi hisoblanadi. Muloqot buzilganda er-xotin bir-birining fikrlari, his-tuyg'ulari, ehtiyojlari va muammolarini to'liq idrok eta olmaydi. Ayrim hollarda muloqot tashqi tomondan mavjud bo'lsa-da, unda samimiylik va emotsional yaqinlik yetishmaydi. Bir-birini tinglamaslik, suhbatni bo'lib yuborish, befarqlik yoki “baribir sen tushunmaysan” kabi kognitiv munosabatlar er-xotin o'rtasida psixologik masofaning ortishiga olib keladi.

Bunday vaziyatda shaxs o'zini tushunilmagan, yolg'iz va qadrsiz his eta boshlaydi. Natijada ehtiyoj va istaklarini ochiq ifodalash o'rniga, sukut saqlash, emotsional chekinish yoki bevosita bo'lmagan jazolovchi xatti-harakatlar (e'tiborsizlik, sovuqqonlik) namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonlar uzoq muddat davom etganda, o'zaro sovuqlik, tez-tez yuzaga keladigan nizolar, mehr va yaqinlikning susayishi, hatto nikohning buzilishigacha olib kelishi mumkin.

Er-xotin o'rtasidagi moliyaviy nizolar asosan daromad va xarajatlarni taqsimlash, pulni tejash yoki sarflashga bo'lgan munosabatlarning turlicha bo'lishi natijasida yuzaga keladi. Har bir shaxs pulga nisbatan munosabatni o'z oilasida olgan moliyaviy tarbiya asosida

shakllantiradi. Shu bois turli ijtimoiy-madaniy muhitda voyaga yetgan er-xotin o‘rtasida moliyaviy masalalarda qarama-qarshiliklar paydo bo‘lishi tabiiy holat hisoblanadi.

Moliyaviy nizolarning chuqurlashuviga oilada kim asosiy boquvchi ekani haqidagi qarashlar, daromadni yashirish, qarzlarni sir saqlash, xarajatlarni kelishmasdan amalga oshirish, ishsizlik, daromadning yetarli emasligi va surunkali moddiy yetishmovchiliklar sabab bo‘ladi. Ushbu omillar o‘zaro hurmat va ishonchning pasayishiga olib kelib, oilaviy munosabatlarda psixologik tanglikni kuchaytiradi.

Shuningdek, xarakter va dunyoqarash farqlari er-xotin nizolarining muhim psixologik manbalaridan biri hisoblanadi. Xarakter shaxsning xulq-atvori, hissiy reaksiyalari va hayotiy vaziyatlarga munosabatida namoyon bo‘ladi. Masalan, bir tomon sherigining sovuqqonligini befarqlik sifatida talqin qilsa, ikkinchi tomon hissiy ifodani mas’uliyatsizlik deb qabul qilishi mumkin. Bunday noto‘g‘ri talqinlar o‘zaro tushunmovchilikni kuchaytiradi.

Dunyoqarash farqlari ham oilaviy munosabatlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Dunyoqarash shaxsning hayotga, qadriyatlarga, oila va jamiyatga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Er-xotin o‘rtasida oila modeli, moliyaviy mas’uliyat, farzand tarbiyasi yoki ijtimoiy qadriyatlarga oid qarashlarning keskin farqlanishi jiddiy nizolarga sabab bo‘lishi mumkin. Bu farqlar psixologik jihatdan to‘g‘ri qabul qilinmaganda, o‘zaro ishonchning susayishiga olib keladi.

Er-xotin o‘rtasidagi nizolar har qanday oilada uchrashi mumkin bo‘lgan tabiiy jarayondir. Biroq nizolarga uchinchi shaxslarning, xususan, ota-ona va yaqin qarindoshlarning muntazam va noo‘rin aralashuvi ularni chuqurlashtiradi. Er yoki xotinning mustaqil qaror qabul qilmasdan, emotsional jihatdan ota-onaga haddan tashqari bog‘lanishi nikohdagi muvozanatni buzadi. Ayrim hollarda nizoni er-xotin o‘zaro hal qilish o‘rniga, tashqi shaxslarga shikoyat qilish natijasida muammo ikki shaxs doirasidan chiqib, kengroq oilaviy qarama-qarshilikka aylanadi.

Stress shaxsning sabr-toqati va hissiy barqarorligini pasaytirib, mayda kelishmovchiliklarning tezda jiddiy nizolarga aylanishiga zamin yaratadi. Stress holatida asabiylik, jahlgah tez berilish va kognitiv noto‘g‘ri talqinlar kuchayadi, natijada er-xotin o‘rtasida bir-birini to‘g‘ri tushunish, tinglash va murosa qilish qobiliyati sezilarli darajada susayadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, surunkali stress sharoitida shaxslararo muloqot sifati pasayib, emotsional yaqinlik va o‘zaro ishonch zaiflashadi.

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish ijtimoiy va psixologik tamoyillarga asoslanadi. Jumladan, erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikoh tuzishi, er-xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlarining tengligi, ichki oilaviy masalalarning o‘zaro kelishuv asosida hal etilishi muhim hisoblanadi. Shuningdek, oilada bolalar tarbiyasi, ularning jismoniy va psixologik farovonligi hamda kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a‘zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tamoyillardan kelib chiqib, oilaviy nizolarni konstruktiv tarzda hal etish uchun ochiq va samimiy muloqotni yo‘lga qo‘yish, bir-birini faol tinglash, o‘zaro ishonchni mustahkamlash, mas’uliyatni anglash hamda farzandlar taqdiriga befarq bo‘lmaslik zarur. Psixologik nuqtayi nazardan, nizolarni kelishuv asosida bartaraf etish oilaviy

munosabatlarning barqarorligini ta'minlaydi. Oilaviy mustahkamlik va nizolar emotsional bog'lanish, moslashuvchanlik va konstruktiv muloqot kabi ijtimoiy-psixologik omillar bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, er-xotin o'rtasidagi nizolar ko'pincha birdaniga yuzaga kelmay, balki uzoq vaqt davomida shakllanadigan psixologik jarayonlar natijasida vujudga keladi. Shu bois bunday nizolarni oldini olish va samarali hal etishda emotsional sezgirlik, o'zaro hurmat, mas'uliyat va psixologik savodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, oila biologik birlik emas, balki murakkab ijtimoiy-psixologik tizim bo'lib, uning mustahkamligi shaxs kamoloti hamda jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Oilaviy munosabatlarning barqarorligi ijtimoiy muhit, psixologik jarayonlar va shaxslararo o'zaro ta'sirning uyg'unligiga bog'liqdir. Oilaviy nizolarni oldini olish va ularni bartaraf etish psixologik savodxonlikni oshirish, samarali muloqot madaniyatini rivojlantirish hamda milliy qadriyatlarga tayangan holda ilmiy asoslangan yondashuvlarni amaliyotga joriy etishni talab qiladi. Oila mustahkamligi jamiyat barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib, sog'lom psixologik muhitni yaratish ijtimoiy ahamiyatga ega ustuvor vazifalardan sanaladi.

Umuman olganda, sog'lom oila — sog'lom jamiyatning poydevori bo'lib, oilaviy munosabatlarda barqarorlikni ta'minlash jamiyatning izchil va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov B.Q. Oila psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
2. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
3. G'oziyev E.G'. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
4. Dyurkgeym E. Jamiyatda mehnat taqsimoti. – Moskva: Nauka, 1996.
5. McCubbin H.I., Patterson J.M. Family Stress and Resilience Model. – New York: McGraw-Hill, 1983.
6. Pearlin L.I. The Stress Process. – Journal of Health and Social Behavior, 1981.
10. Ismoilov S., & Tashkentov N. Oilaviy nizolar va ularni bartaraf etishning psixologik omillari. – O'zbekiston Psixologiya Jurnali, 2019, 3(1), 45–53.
11. Karimova D. Er-xotin muloqoti va oilaviy barqarorlik. – Pedagogika va Psixologiya, 2020, 5(2), 12–20.
12. Ahmedova N. Oila a'zolarining emotsional qo'llab-quvvatlashi va konfliktlarni hal etish. – Psixologik Tadqiqotlar, 2021, 2(1), 30–38.